

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

60811500- Zootsiyeneriya (yilqichilik va tuyachilik)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent

ЎЗР ОЎМТВ
Буйруқ № 233
• 19 • 07 2022 йил

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «7» 07 dagi 3 - sonli yig‘ilishida ma‘qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022 yil «19» 07 dagi 233 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur malaka talablari “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T.r.	bet
1. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi	4
1.2.1. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari	5
2. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar	7
Bibliografik ma'lumotlar	8
Kelishuv varag'i.....	9

1. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. O'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturlarini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga "**bakalavr**" malakasi (darajasi), "....." kvalifikatsiyasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi *60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'limi) boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi:

1.2.1. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) – ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, yilqi va tuyalarni hamda boshqa chorva mollarni urchitish usullarini, naslchilik ishini olib borishni, ularning nazariy asosi bo'lgan genetika qismini ya'ni irsiyat va o'zgaruvchanlikni, belgilarning nasldan–naslga berilishini, biometrik tahlil qilishni, yilqi va tuyalar hamda boshqa chorva mollari uchun to'la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish va mustaxkam ozuqa bazasini tashkil etish. Bu yo'nalish yilqichilik va tuyachilikda naslchilik ishlarini tashkil etish asoslari; go'sht, sut, jun, teri va boshqa ikkilamchi yilqichilik va tuyachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qayta ishlash va standartlashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, yilqichilik va tuyachilikda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarining nazariy va amaliy

asoslari; yilqi va tuyalar kasalliklari va ularni oldini olish usullari; yilqichilik va tuyachilikda veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish; otlarni sinash, mashq qildirish va ot sporti; yilqi va otlarni yaylovda boqish, yilqichilik va tuyachilik mahsulotlaridan tayyor mahsulotlarga aylantirish; yilqichilik va tuyachilik sohasi va xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini hisob-kitob qilish; qishloq xo'jaligi menejmenti va marketing sohaslariga ixtisoslashgan bakalavrlar tayyorlaydi va ularni tayyorlashning samarali metodlari va vositalari majmuini qamrab oladi.

1.2.2. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining obyektlari:

- chorvachilik, yilqichilik va tuyachilik xo'jaliklari, kichik korxonalar va boshqalar;
- Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning tasarrufidagi chorvachilik ob'ektlari, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tarkibidagi yilqichilik va tuyachilik xo'jaliklari;
- fermer xo'jaliklari;
- respublika, viloyat va tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari;
- ishlab chiqarishda yilqi, tuya va boshqa hayvonlarini urchitish, oziqlantirish, saqlash va asrash jarayonlarini tashkil qilish;
- yilqi, tuya hamda boshqa chorvachilik tarmoqlarida seleksiya ishlarini tashkil qilish;
- otlarni sinash, mashq qildirish va ot sporti;
- chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va dastlabki qayta ishlash majmualaridan foydalanish;

60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. - 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari

60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- yilqichilik va tuyachilikda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbqiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbqiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60811500-Zooinjeneriya (yilqichilik va tuyachilik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish sohasida boshlang'ich bo'g'inda chorvachilik ishini tashkil etish, konsalting xizmatini yo'lga qo'yish va boshqarish;

- zootexniya hisobi va hisoboti hujjatlaridan foydalangan holda fermerlar uyushmasi, tuman, shahar, viloyat yoki Respublika bo'yicha hayvonlarning bosh sonini ko'paytirish;

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbir qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat turi, kredit, modul, bakalavriat, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, malakaviy amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, davlat attestasiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ta'lim sifati nazorati, profil, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, yilqichilik va tuyachilik ta'lim sohasi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston yilqichilik va ot sporti federatsiyasi tarkibidagi yilqichilik xo'jaliklari, yilqichilikda va tuyachilikda takror ishlab chiqarish, podasini tashkil qilish, ishchi va transport sifatida foydalanish, me'yorda saqlash va oziqlantirish, ot sporti, eksteryer, interyeri va konstitutsiya, takror ishlab chiqarish, yaylov yilqichiligi otlarni mashq qildirish va sinash, ot sporti turlari, o'yinlari zavod tiplari, naslchilik ishi

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Rektor  **X.B. Yunusov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tadbiq etish markazi**

Direktor  **Sh. Yakubov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va
chorvachilikni rivojlantirish davlat
qo'mitasi**

Kais  **B.T. Norqobilov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

**Toshkent davlat agrar
universiteti**

1-prorektor  **S.Y. Islomov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.



**Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi
ilmiy-tadqiqot instituti**

Direktor v.b.  **A. Xatamov**

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

